

INSON VA JONZOT MIKROXRONOTOPIDA PARALLELIZM

Bahor Bahriiddinovna TO'RAYEVA

Dotsent, filologiya fanlari doktori
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston

ПАРАЛЛЕЛИЗМ В МИКРОХРОНОТОПЕ ЧЕЛОВЕКА И СУЩЕСТВ

Бахор Баҳриддиновна ТУРАЕВА

Доцент, доктор филологических наук
Узбекский государственный университет мировых языков
Ташкент, Узбекистан

PARALLELISM IN MICROCHRONOTOPE OF HUMAN BEING AND CREATURES

Bahor Bahriiddinovna TURAEVA

Doctor of Sciences in Philology, Associate Professor
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan bahorturaeva@gmail.com

UDC (УО'К, УДК): 82.09

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

To'rayeva B.B. Inson va jonzot mikroxronotopida parallelizm //O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — № 1 (48). — B. 151-166.

<https://doi.org/10.36078/1679987028>

Received: january 5, 2023

Accepted: February 17, 2023

Published: February 20, 2023

Copyright © 2023 by author(s).
This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

Annotatsiya. Maqolada Chingiz Aytmatov va Normurod Norqobilov romanlari misolida inson va jonzot ruhiy olamidagi evrilishlar mikroxronotop, ijtimoiy-tarixiy sharoitning qahramon taqdiri va fe'l-atvoriga ta'siri makrochronotop, texnokratlashayotgan olam fojialari, ilmiy kashfiyotlarni Yaratgan irodasiga qarshi qo'llashning halokatlari oqibatlari megaxronotop asosida ifodalanishi tahlilga tortilgan. Xronotopning uch tipi syujet, kompozitsiya, motiv, obraz, detal, uslub singari poetik komponentlarning semantik-struktural munosabati doirasida muhokama qilingan. Xronotopning inson ruhiy olami bilan bevosita mushtaraklikda tasvirlanishi mega, makro va mikroxronotoplarning aloqadorligi asosida ayonlashadi. Bular olam va odam munosabatlarini ruhiyat, jamiyat va koinot kengligida aks ettiradi. Birinchisi, makon va zamonda kechayotgan o'zgarishlarni koinot va yer yuzi, ikkinchisi, insonlar o'rtasida kechadigan real voqeа-hodisalar, uchinchisi, inson ruhiyati bilan ong va tafakkuri ostidagi ziddiyatlarni ifodalaydi. Parabolaramanda mikro va makrochronotop paralleligi o'tmisht va hozirning, ichki va ijtimoiy xronotopning yondoshligini ta'minlaydi. Badiiy asarda xronotop kategoriysi inson ruhiy olami bilan bevosita mushtaraklikda tasvirlanadi. Maqolada tadqiq obyekti sifatida Chingiz Aytmatovning “Asrni qaritgan kun”, “Qiyomat”, “Qulayotgan tog’lar”, “Kassandra tamg’asi” hamda Normurod Norqobilovning “Dashtu dalalarda”, “Qoraquyun”, romanlari tanlangan. Tadqiqotning predmetini zamонавиј romanchilikda mikroxronotop poetikasining qiyosiy tipologiyasi tashkil etadi. Tadqiq jarayonida qiyosiy-tipologik, psixologik, sistem-struktur tahlil usullaridan foydalilanilgan.

Kalit so‘zlar: roman; mikro-; makro-; megaxronotop; motiv; analepsis; struktur analiz; syujet chizig'i; kompozitsiya; parallelizm.

Аннотация. В статье на примере романов Чингиза Айтматова и Нормурода Норкобилова на основе микрохронотопа исследуются изменения в духовном мире человека и существа; а на основе макрохронотопа изучается влияние общественно-исторических условий на судьбу и характер героя; трагедии технократизирующегося мира, катастрофические последствия использования научных открытий против воли Творца. Рассматриваются три типа хронотопа в рамках смысло-структурной связи поэтических компонентов: сюжета, композиции, мотива, образа, детали, стиля. Изображение хронотопа в непосредственном общении с духовным миром человека проявляется на основе взаимосвязи мега-, макро- и микрохронотопов. Во-первых, это изменения пространства и времени во Вселенной и на Земле, во-вторых, реальные события, происходящие между людьми, в-третьих, представляет конфликты между человеческой психикой, разумом и мышлением. В романе-параболе микро- и макрохронотоп обеспечивает паралелизм прошлого и настоящего, внутреннего и социального. В художественном произведении категория хронотопа изображена в непосредственной связи с духовным миром человека. В качестве объекта исследования выбраны романы «И дольше века длится день», «Плаха», «Когда падают горы», «Тавро Кассандры» Чингиза Айтматова, «В степях и полях», «Коракуюн» Нормурода Норкобилова. Предметом исследования является сравнительная типология поэтики микрохронотопа в современных романах. В процессе исследования использовались сравнительно-типологический, психологический, системно-структурный методы анализа.

Ключевые слова: роман; микро-, макро-, мегахронотоп; мотивы; аналепсис; структурный анализ; композиция, параллелизм.


Abstract. The article deals with the transformations in the spiritual world of a human being on the basis of the microchronotope expressed in the novels of Chingiz Aitmatov and Normurod Norkobilov; the influence of socio-historical conditions on the fate and character of the hero is studied on the basis of the macrochronotope; the tragedies of the technocratic world, the catastrophic consequences of the use of scientific discoveries against the will of the Creator are expressed on the basis of the megachronotope. Three types of chronotope are considered within the semantic-structural connection of poetic components: plot, composition, motive, image, detail and style. The image of the chronotope in direct communication with the spiritual world of a person is manifested on the basis of the relationship of mega-, macro- and microchronotopes, which reflects the relationship between the universe and man in the vastness of the psychology, society and the universe. The first represents the changes in space and time, the universe and the earth; the second represents the real-life events that take place between people; the third represents the conflicts between the human psychology and consciousness and thinking. In the parable novel, the parallelism of micro and macrochronotope ensures the convergence of past and present, internal and social chronotope. The subject of the research work are the novels "The Day Lasted More Than a Hundred Years", "Doomsday", "Falling Mountains", "Cassandra's Brand" by Chingiz Aitmatov and "In the Steppe Fields", "Black Whirlwind" by Normurod Norkabilov. The subject of the research is the comparative typology of microchronotope poetics. The

comparative-typological, psychological and system-structural analysis methods were used in the study.

Keywords: novel; microchronotope; macrochronotope; megachronotope; motive; analepsis; structural analysis; composition; parallelism.

Kirish. Chingiz Aytmatov va Normurod Norqobilov inson ichki dunyosidagi turli holatlar, ruhiy kechinmalarning teran tasvirini jonzot obrazining mikroolami bilan parallel keltirib, ruhiyat manzaralarini faqat o‘ziga xos, boshqalarga o‘xshamagan tarzda inkishof etadi. “Chingiz Aytmatov barcha asarlarida o‘z usul va tadbirlariga sodiq qoladi: rivoyat va afsonalar bir-biriga qo‘silib-chatishib ketadi. Ularda tulki, bo‘ri, it, tuya, kalxat, baliq singari xonaki va yirtqich hayvonlar, jonivorlar ham o‘ziga xos adabiy siymolar” bo‘lib gavdalanadi (3, 159). “Asrni qaratgan kun” romanida Edigey Bo‘ron qalbidagi dard Qoranor tuya, “Qiyomat” romanida Bo‘ston va Gulimxonning farzandidan ayrilish iztirobi Toshchaynar hamda Akbara, Arsen Samanchin ruhiy muvozanatining buzilishi Jaabars obrazlari orqali ta’sirli va ishonarli tasvirlangan. “Tuya, tulki, kalxat, it (“Asrga tatigulik kun”), bo‘ri, ot (“Qiyomat”), qoplon, qaldirg‘och (“Qulayotgan tog‘lar”)ni odamlar hayotini kuzatayotgan, ularning kundalik turmushiga aralashib, birga nafas olayotgan holatda ko‘rsatgan. Bu jihatdan hech bir ijodkorni Chingiz Aytmatov bilan tenglashtirib bo‘lmaydi. Uning asarlarida yer, dala, burgut, quyosh, oy, soy, tog‘-tosh, ot, tuya, bo‘ri kabi jonzotlar odamlar kabi qahramonga aylanib harakat qiladi” (4, 363).

Yozuvchi N.Norqobilov romanlarida tabiatning hali inson tomonidan u darajada chuqur anglanmagan, tabiat qonunlari bilan bog‘liq buyuk falsafasini anglatishdek badiiy maqsad mujassam. Bu jihatlar nabotot, jamodot, hayvonot olamini uyg‘un holatda naturalistik tasvirlash va roman matni ostidagi tabiat hodisalarining tabiat qonuniyatlari bilan bog‘liqligi haqidagi poetik ishoralarda namoyon bo‘ladi (5, 22). “Dashtu dalalarda” romanida dashtda yolg‘izlanib qolgan To‘lanboy iztiroblari Qoraquloq, Eshqul polvon ruhiy olami Bo‘zbo‘ri, “Qoraquyun” romanida Erman qalbini o‘rtayotgan qasos Qoraquyun timsollari orqali parallel yo‘sinda ochib berilgan.



1-rasm. *Chingiz Aytmatov va N.Norqobilov romanlarida inson va jonzot mikroxronotopining parallel tasviri*

1-rasmdagi inson va jonzot mikroxronotopining parallel ifodasi har bir romanlar misolida tahlil qilinib, yozuvchilar mahoratidagi o‘xhash va o‘ziga xos qirralar induksiya va deduksiya orqali izohlandi.

“Asrni qaritgan kun” romanida Edigey va Qoranor mikroolami parallellik kasb etgan. Edigey ruhiyatidagi kechinmalar — Zarifaga muhabbat, Ukkubolasidan voz kecholmaslik, sevgi va mas’uliyat ziddiyati aynan Qoranor tuya bilan bog‘liq voqealar uyg‘unligida aks etadi. “Quturgan Qoranor bechoralarga tinchlik bermas, urg‘ochi tuyalar atrofida yelib-yugurib, kimdandir qizg‘anayotgandek g‘azab bilan o‘kirardi. Nahotki, osmondagи bulutlar orasidan arang shu’la taratayotgan oydan qizg‘anayotgan bo‘lsa?”. Edigey qalbidagi dard o‘zini qo‘yarga joy topolmayotgan, qo‘sh o‘rkachli Qoranorga ko‘chiriladi. Kospanning “tuya hammayoqni dahshatga soldi-ku. ...Dunyoga kelib, bunday yovuz yirtqichni ko‘rmagan edim. Qishlog‘imiz odamlari qo‘rquvdan esi chiqayozdi. Bu baloden qutqarmasang, Qoranorni otib tashlayman” qabilidagi xatidan so‘ng Edigey Oqmo‘ynoqqa yo‘l oladi. Zarifa shu kuni bolalarini olib, Sario‘zakdan butunlay ketadi: “Bularning bari sening kasofatingdan! Ha, hammasiga sen sababchisan... Ovloq joylarda iliqib yurishing shartmidi? U esa bolalarini olib ketib bo‘ldi! Ne kunlarga qolganim bilan hech biringizning ishingiz yo‘q! Endi men qanday yashayman? Qanday yashayman?” (I, 437). “...Shunda u qorga cho‘kdi-da, boshini changallagancha yig‘lab yubordi... Sevimli ayolingdan, suyumli bolalaringdan ayrilib yashagan umring qursin, bunday umrning ma’nis yo‘q, degandek millionlab qor uchqunlari havoda mayin shitirlab, qulog‘iga gapirayotgandek tuyuldi. Edigey shu yerning o‘zidayoq qor ostiga ko‘milib, o‘lishni afzal ko‘rdi” (I, 439). Qahramon histuyg‘ularining butun murakkabligi, ziddiyati, ko‘zga ko‘rinmas, sirli jihatlarini badiiy talqin etish, ichki olamida kechuvchi tizginsiz evrilishlarni ifodalashda nafaqat jonivor, balki peyzaj tasviridan ham unumli foydalangan. Qor — ramziy ma’noda Edigey Bo‘ron qalbidagi ishq. Shu onda u bir umr qalbida tug‘yon urayotgan dard bilan qolishni va shu dard quyunida ko‘milib o‘lishni afzal bildi.

Ko‘kyol bo‘rilar — Akbara va Toshchaynar mikroxronotopi. Bu ikki jondorning boshchisi, aqli-esi Akbara va uning qora quli — amru irodasini bajo keltiradigan arloni Toshchaynar Mo‘yinqum sahrosi, Aldash ko‘li va Issiqko‘l tog‘ tizmalarida hayot kechiradilar. Uch marta bolalab, naslini asrab qolish uchun harchand harakat qilmasin, ulardan insonlar tufayli ayrligan Akbara va Toshchaynarning azobu uqubatlari uch kichik xronotop orqali ifodalangan:

- a) go‘sht planini bajarish uchun mo‘yinqum sahrosida sayg‘oqlarga qirg‘in uyushtirilganda uch bolasining nobud bo‘lishi;
- b) tog‘da yangi kon ochilib, unga aldash ko‘li yaqinidagi qamishzordan yo‘l o‘tganligi bois, qamishzorga o‘t qo‘yilishi natijasida besh bolasidan ayrlishi;

c) buloq darasidan bozorboy tomonidan to‘rt bolasining olib ketilishi.

A) Mo‘yinqum sahrosida qishning ilk kunlarida Akbara va Toshchaynar to‘ng‘ich farzandlarini sinab ko‘rgani birinchi katta sayg‘oq oviga olib chiqishganda quturgan talotumda qoladilar. Sonsoqsiz sayg‘oqlar aqldan ozdiradigan tezlik bilan bo‘rilar tomonaga bostirib kelishar, bo‘rilar ov qilish tugul, o‘zlarini himoya qilolmay qoldilar. «*Akbara ularni ko‘z qiri bilan ko‘rib turardi — ana, ular kiyiklar orasida tobora ildamroq yugurmoqdalar, ana, ko‘zlar qo‘rqinchdan jaynoqlangan to‘ng‘ichlari — hov ana Xumkalla, hov ana Ildam, ana, holdan toyib, bazo‘r yetib kelayotgan Suyginoy, ana, Mo‘yinqumning qahrli botiri — Toshchaynar, evoh, u ham dahshatli qo‘rquv ichida tiraqaylab qochib keladi*» (II, 35). Bolalari birin-ketin kiyiklarning tuyoqlari tagida toptalishlari, vahimali shovqin, ola-tasir o‘q ovozlari, mashinalarning guvillashlari, odamlarning baqiriq-chaqiriqlari, jon berayotgan kiyiklarning hirqirashlari, boshdan-oyoq qonga botgan odamlar Akbara va Toshchaynar uchun birinchi falokat edi.

B) Tog‘dan topilgan qimmatbaho ma’danga yo‘l ochish maqsadida ko‘ldagi qamishzorga o‘t qo‘yiladi. Bolalarini olov ichidan olib chiqish uchun o‘zlarini o‘ngu so‘lga urishadi: «*Bo‘rilar olov taftini sezganlari hamon, qamish har tomongan yonayotganini ko‘rib, bo‘richalarni qutqarish uchun o‘zlarini u yoqdan-bu yoqqa ura boshladilar. Ularni tishlarida dam u yerga, dam bu yerga ko‘tarib o‘tishardi. Aldashbo‘yi qamishzorlarida qiyomat qo‘pdi*» (II, 289). Akbara va Toshchaynar bolalarining uchtasini qoldirib, ikkitasini tishlarida ko‘tarib, ko‘ldan suzib, o‘tganlarida ularning ham suvga bo‘kib o‘lishi ikkinchi falokat bo‘ldi.

C) Ikki marta bolalaridan ajragan bo‘rilar Oq tuz dovonidan oshib, Issiqko‘l tog‘ tizmalarini makon qilishadi. Tog‘dagi hayotlarining ikkinchi yili to‘rt bola ko‘rishadi. Geologlarni Achchiq Tosh darasiga qoldirib, uyiga qaytayotgan Bozorboy ish haqiga berilgan aroqni ichish uchun soy bo‘yida to‘xtaganda, yolg‘iz qolgan bo‘ri bolalarining ovozi qulog‘iga chalinadi: «*Hali iniga yetmasdan, hali uzoqdan Akbaraning yuragi bir kori hol bo‘lganini sezdi. ...Huvillab kolgan bo‘m-bo‘sh uyasining hamma burchaklarini ovchi itday iskab chiqdi va pishqirdi, bir zum qotib qoldi, so‘ng o‘zini tashqariga otdi, in og‘zida Toshchaynar bilan to‘qnashdi, xuddi bariga u aybdorday, xuddi eri emas, g‘anim-yovday uni alam ustida tishlab oldi*» (II, 307). Akbara va Toshchaynar bu safar qismatning achchiq sinovini tan olgilar kelmasdi, chunki oldingi yo‘qotishlarda bolalari sayg‘oqlar tuyog‘i ostida, olov ichida, suvga bo‘kib, halok bo‘lishganini ko‘rishgandi. Bu safar bolalarini tirik olib qochgan Bozorboy Bo‘ston O‘rkunchievning qo‘tonida jon saqlaydi. Nainki naslini saqlab qolish umidida jon-jahdi bilan urinayotgan Toshchaynar va Akbara uchun, balki Bo‘ston uchun ham azobli kunlar boshlanadi. Kechalari bo‘zlab, uv tortgan Toshchaynar va Akbara bolalarini topish ilinjida izg‘ir, uv solgan ovoz ko‘kka o‘rlar va yurakka og‘ir vahima solardi, alamiga chidolmay qo‘ylarni bo‘g‘izlab ketishardi.

Bolalarini izlab, Boshat darasidagi iniga qayta-qayta bormasin, bo'sh inni ko'rib, Akbaraning fig'oni falakka o'rлardi. Yozuvchi Akbara va Toshchaynar izardiroblarni Bo'ston va Gulimxon mikroolamiga parallel tasvirlaydi. Har birlarining izardiroblari o'zlariga ayon, bu sinovlar ularga azalning qismati ekanligiga hech birlari ko'ngilari kelmaydi.

Akbara qalbidagi ayriliq ruhiyati tush epizodik tasviri orqali beriladi. Bunda xronotop o'zgaradi. Tushda sodir bo'layotgan voqelik Mo'yinqumga ko'chiriladi: "*Akbara tushida o'zini ulug' cho'l Mo'yinqumda uchib ketayotganligini ko'rди, uning oyoqlari yerga tegmaydi, yonida to'rtala bolasi, ular ham uchib borishyapti, shundoq yonlarida esa Toshchaynar katta-katta hatlab sakrayotibdi*" (II, 367). Bolasidan uch marta mosuvo bo'lgan ona bo'rining qayg'u-izardiroblari, hatto Bo'stonning bolasi Kenjashni o'z inida yashashini, uni emizib katta qilishini o'ylab, orziqib ketishi ishonarli tasvirlangan. Mo'yinqum cho'llarida, Aldash dala-tuzlarida, Issiqko'l bo'yalarida Toshchaynar bilan kechirgan quvonch va qayg'ularga to'lgan kunlarini bir-bir xotirlab, Akbara hasratini alamli joniga sig'dirolmay yurgan kezlarida Kenjash unga so'nggi ilinj bo'ldi, yuragida yig'ilib qolgan barcha mehrini unga to'kib soldi, bola hidlarini ko'ksini to'ldirib-to'ldirib iskadi.

Bo'ston va Gulimxon mikroxronotopi. Bo'stonning Gulimxoniga, Do'nqo'liq nomli otiga, ilg'or cho'pon ekanligiga Bozorboyning hasadi, Ernazarning Ola Mo'ngu muzliklarida mangu qolib ketishi, Ernazardan ayrilib qolgan Gulimxonning ayanchli izardiroblari uch yildan so'ng Kenjashini yo'qtganda alanga olishi, uch bolasidan judo bo'lgan Akbara va Toshchaynarning achchiq faryodi kuchli dramatizm asosida tasvirlangan. Akbaraning ayriliqdan o'rtanishi, yurakni o'rtab yuboradigan, odamning asablari dosh bermaydigan nolishlari Bo'ston va Gulimxonning qalb yaralarini yangilab, alam o'tida jonlarini o'rtardi. Akbaraning achchiq faryodi Gulimxon va Bo'stonning izardirobi o'tmishini esga solar, ular bunga chiday olishmasdi: "*Ayniqsa, Akbara o'rtanib yonardi. U xuddi mozorga borgan xotindek nola chekardi. Shunda Gulimxon Ernazar dovonda nobud bo'lganda, boshini devorga urib yig'laganlarini esladi. Shu tobda alamidan dod deb yuboray dedi. Bo'stonni uyg'otib unga hamma-hamasini bir chekkadan so'ylab berishiga oz qoldi, bundan o'zini bazo'r to'xtatdi*" (II, 334).

Bo'ston esa "*Yuragi adoqsiz mahzun o'ylardan goho shunchalar ham siqilib ketardiki, bu kecha yana paydo bo'lib uv solayotgan bo'rilarining faryoddiali Bo'stonga o'z mustar ko'kragidan otilib chiqayotganday tuyulardi*" (II, 363). Partorg Qo'chqorboevning «Yer bizning mamlakatimizda faqat xalqqa, yolg'iz xalqning o'zигагина tegishlidir, boshqa hech kimga emas. Siz esa o'zingizga qishlik va yozlik yaylovlar, qo'ra, qo'tonlar, yem-xashak talab qilyapsiz, biz bularni sizga xususiy mulk qilib berolmaymiz, sotsializm prinsiplarini buzishga bizning haqqimiz yo'q» qabilidagi ta'nalari, Ola Mo'ngu muz dovonida jasadi muzlab yotgan Ernazar haqidagi azobli o'ylar Bo'stonga tinchlik bermasdi: "*Nazarida bo'rilar emas, uning o'rtanib kuygan dili qo'ralar ortida tun*

qorong ‘iligidə noumid kezayotganday, qo ‘zyosh to ‘kaverib alamdan ko ‘r bo ‘lgan dili Akbara bilan birga nola-afg ‘on qilayotgan, uvvos solib yig ‘layotganday edi” (II, 363).

Bo‘ston va Gulimxonning qalblarida dafn etilgan achchiq xotiralarning yondoshligi Akbaraning ruhiy iztiroblarini badiiy ta’sirchan, qabariq tasvirlash imkonini bergen. Romanning birinchi va ikkinchi qismlarida inson va jamiyat munosabatlari aks ettirilgani uchun makroxronotop ustuvor. Uchinchi qismda esa ruhiy iztiroblar asosiy planga chiqarilgan. Akbara va Toshchaynar, Bo‘ston va Gulimxon mikroxronotoplari ayriliq, farzandini yo‘qotish motivi asosida parallelizm hosil qilgan.

Uch marotaba bolalaridan judo qilingan Akbara yuragidagi bo‘shliqni Kenjash to‘ldirishini istaydi, u nimasi bilandir bolalarini esiga soladi va uni o‘z iniga olib ketishga qaror qiladi:

— *To ‘xta! To ‘xta, Akbara! To ‘xta deyapman! — bor ovozi bilan bo ‘kirdi Bo‘ston va bo ‘ri ortidan quvib ketdi. Akbara qochdi. Bo‘ston uning izidan miltiq ko ‘targancha chopar va g‘ayritabiyy tovush bilan o ‘kirardi: — To ‘xta, Akbara! O‘g‘limga tegma! Senga hech qachon yomonlik qilmayman! Bolani qo ‘y, tegma unga! Akbara!* (II, 424)

Inson jonzotga o‘q uzdi, ammo o‘q o‘z bolasining o‘limiga sabab bo‘ldi, natijada o‘z kelajagidan ayrıldi. Hayotningadolat tarozusi tenglashdi, ammo Bo‘ston ham, Akbara ham bu savdoda aybsiz aybdor edilar.

— *Mana, dunyo ham oxir bo ‘ldi, — o ‘z-o ‘ziga dedi Bo‘ston va shunda unga bir dahshatli haqiqat ochildi: shu damgacha bor yorug ‘dunyo uning o ‘zida jamlashgan ekan, mana endi shu dunyo bitdi. U osmon edi, u yer edi, u tog ‘lar edi, borliq, tiriklikning buyuk onasi bo ‘ri Akbara edi, Ola Mo‘ngu muzliklarida abadiy qolib ketgan Ernazar edi, pushti kamaridan bo ‘lgan oxirgi bir parcha et, o ‘z qo ‘li bilan otgan Kenjash edi, la ‘natlangan va o ‘ldirilgan Bozorboy edi va to shu tobgacha nima ko ‘rgan, boshidan nimaiki kechirgan bo ‘lsa — bularning bari u, uning o ‘z jahoni edi* (II, 430).

Adib ta’biri bilan aytganda, inson — tabiatning bir parchasi, tabiat unga yashash uchun berilgan makon. Agar inson tabiatga sitam o‘tkazarkan, albatta, bu iztirob uning o‘ziga ham daxldor.

J. E. Joldoshaliyeva inson tabiatni toptagani uchun jazoga mustahiq ekanini shunday izohlaydi: “Bu roman tabiatda inson tomonidan beparvolik bilan vayron qilingan har bir narsa uchun o‘z mas’uliyatini anglashga, yana chuqur mushohadaga chaqiradi. Shunisi e’tiborga loyiqliki, yozuvchi tabiat muammolarini inson shaxsini yo‘q qilish muammolarini bilan uzviylikda tasvirlaydi. Tabiat hamma narsa uchun odamlar kutganidan tezroq qasos oladi. Tabiat, bizdan farqli o‘laroq, faqat bitta adolatsiz xarakterga ega: u halokatga siz aybdormisiz yoki yo‘qmi, tushunmaydi” (1, 72).

Arsen Samanchin va Jaabars mikroxronotopi: “Qulayotgan tog‘lar” (“Abadiy qalliq”) romanida uch mustaqil syujet chizig‘i yondosh holda rivojlanadi. Bir burjning yulduzlari ostida dunyoga kelgan, samoviy jihatdan qardosh bo‘lgan ikki mavjudot — Arsen Samanchin va qor barsi — Jaabarsning taqdir qismati voqealar rivojida tutashadi. Asarda ikki asosiy qahramonning birovi

serizdihom azim shaharda, ikkinchisi esa, cho‘qqilari ko‘z ilg‘amas yuksak tog‘larda bo‘lsa-da, qismatlari shunchalik hamohangki, go‘yo taqdiri azal hukmini o‘qiganda, ularga bir xil hayot tarzini ravo ko‘rgandek.

Voqealar Jaabars hayoti tasviri bilan boshlanadi. Muallif “qissamiz qahramonlari — ikki mavjudotning qaysidir ma’noda qismatlari o‘zaro bog‘liq, samoviy jihatdan qardosh deb taxmin qilsa bo‘lar..” (IV, 16), deya ularning ikki nafar ekanligini ishora qilsa-da, ikkinchi bobga qadar ikkinchi qahramonni tanishtirmaydi.

Arsen Samanchinda yozuvchi, mustaqil egamen journalist, nozikfahm siyosatchi, voqealarga tiyrak nigoh bilan boquvchi, o‘z davri illatlariga qarshi kurashgan erkin fikr egasi, musiqa san’atini “Xudoga yetishish, ruh galaktikasi” (IV, 30) deb bilgan, shu bois opera kuylovchisi — Oydana Samarovaga ko‘ngil qo‘yan oshiq, bozor iqtisodiyoti mafkurasi va “ommaviy madaniyat”ning ta’siri tufayli umidlari yo‘qqa chiqqan, ammo e’tiqodi susaymagan chinakam Inson xarakteri mujassam. Arsen Samanchin va Jaabars ruhiyatidagi achchiq iztirob — yaqinlarining ulardan yuz o‘girishi kabi holatlar yondosh ifodalanadi. Juftidan ayrılgan, raddi ma’raka qilingan Jaabarsning “jahannam zimistoniga cho‘mganday, nima qilishni bilmay gangib qolishi, oxirgi ilinji — Uzangilash tog‘larining narigi tomoniga o‘tolmay, ovorai jahon bo‘lishi” Arsen iztiroblari bilan uyg‘unlashadi. Kuch-qudrati qaytgan Jaabars juftidan ayrıldi, Opera teatrining yetakchi solistikasi, “Abadiy qalliq”qa sahnada qayta jon ato etish kabi ezgu niyatni chippakka chiqargan, boylik va hokimiyat shaydosi Oydana Arsenni tashlab ketdi, ikkovidan ham o‘z jamiyati yuz o‘girdi. Qismatlararo mushtaraklik bejiz emas, ularning taqdirlari bir burj ostida bitilgan. Bir-birining qismatidan mutlaqo bexabar inson va jonzot qazovu qadarning hukmi tufayli so‘nggi manzilda, so‘nggi lahzada uchrashishadi.

Abadiy qalliq — noreal olam vakili, ruh obrazi bo‘lsa-da, Arsen va Jaabars syujet chiziqlariga tutashadi. Ularning qalb iztiroblarini yangilaydi. Hattoki, “*Jaabars Abadiy qalliqning hasratlariga, qo‘rqinchlariga bardosh bera olmadi, o‘rnidan turdi-da yo‘lakdan yurib boshqa tomonga o‘tdi*” (IV, 129). Mangu qayliq Oydana va Jaabarsning juftiga kontrast bo‘lib, sevgi va xiyonat motivi yondosh qo‘yiladi.

SSSR va Qirg‘iziston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, falsafa fanlari nomzodi K.Ibraimov “Mangu qayliq”dagi ikki parallel “sevgi uchburchagi”ni shunday izohlaydi: “Tabiat olamidan birinchisi — Jaabars, uning sevgilisi va yosh chinoq bars. Birinchisini tabiatan idealist deb hisoblash mumkin. U dunyonи va atrofidagi hamma narsani abadiylik prizmasi orqali idrok etadi. Yosh chinoq faqat hozirgi kun bilan yashaydi, uning uchun dunyo faqat yoshlik, epchillik va kuch bilan o‘lchanadi. U kuch va yoshlikni afzal ko‘radi, “hayotning samoviy musiqasi... shunday bo‘lgan, abadiy bo‘ladi va buning uchun hech qanday hukm yo‘q. Ikkinchisi “sevgi uchburchagi” ham tanazzulga yuz tutadi. Ayol idealist va hayot ustomoni o‘rtasida tanlov qiladi: idealist yutqazadi. Aytmatovning so‘zlariga ko‘ra, zamon fojiasi shundaki, odamlar hayvoniy instinctlar bilan yashay

boshlaganlar. Ularga abadiy qadriyatlar kerak emas. Oydanaga Mangu qayliq afsonasi foyda keltirmagani uchun uni sahnada gavdalantirmaydi” (2).

Arsen, Eles, Oydana, Mangu qayliq, Jaabars mikroxronotopining mohiyati ayriliq, sevgi, xiyonat, tark etilish, iztirob motivlarida ayonlashadi. Arsen — Jaabars tark etilish va xiyonat qurbaniga aylanish, Arsen va Eles sevgi, Eles va Mangu qayliq ayriliq hamda iztirob, Oydanaga va barsoyim ruhiyati manzaralari xiyonat motivlari orqali yanada teranlashadi. Arsen mikroxronotopi ifodasida faqat Ch.Aytmatovga xos uslub namoyon bo‘ladi, ya’ni Avdiy gallyusinatsiya tufayli Iso Masih dunyosida mavjud bo‘lgani kabi Arsen ham xayol ummonida zamon va makonda farqli qahramonlar bilan bemałol suhbat quradi, dil rozini so‘ylaydi. Asarning ikki o‘rnida bu holat namoyon bo‘ladi: biri — “parokanda to‘zg‘igan xayollar ichida unga faqat Oydanani shu yerda, yonginasida deb tasavvur etmoq va xayolan suhbat qurmoq ishtiyoqigagina tuyassar bo‘la bilgan” (IV, 127) Arsen aytolmagan, qalb tubida dimlanib yotgan qayg‘u-hasratlarini Oydanaga to‘kib solsa, ikkinchisi — poezdda Saratovga ketayotgan Elesning ortidan tafakkur tezligida chopib, tog‘lar qo‘ynida bo‘lsa-da, lekin bir kупeda yuzma-yuz o‘tirgandek Eles bilan dildan so‘zlashadi, unga “O‘ldir-o‘ldirma” hikoyasining qo‘lyozmasini beradi va hikoya tarixidan ogoh etadi, bu Arsenning so‘nggi o‘tinchi, vasiyati yanglig‘ yangraydi: “Men aytar duolar — shu hikoya ichida. Agar u senga dilso‘z bo‘lib tuyulsa, kel, birga munojot qilaylik, sezgimiz sezgilar bilan unsiyat topgay. Muhabbatning bundan ortiq nimasi bor... Men cho‘ntak daftaramga yozib qo‘ydim — birinchi mutolaalar Moskov ostonasidagi mashhur Volokalam qabristoni hamda Brest qal’asida, so‘ng boshqa shu kabi ko‘p yerlarda, jumladan, Yevropa ziyyaratgohlarida o‘tsin... Men shuni juda-juda xohlardim” (IV, 237).

Yozuvchi qahramonlarning ayanchli taqqirlarida yuz berishi muqarrar fojiaga prospektiv-ishora qiladi, bu ularning ichki sezimlarida akslanadi, real olamda ro‘y berishi kutilayotgan fojia sharpasi qahramonlar ruhiy olamida kezinadi: Arsen halokatdan “Oh, to‘xtat, to‘xtat, meni, Eles” (IV, 235), deya yolvorsa, Eles Yaratganga iltijo qiladi: “O‘sha kecha Eles munglanib yig‘ladi va xudodan o‘z baxtini ko‘p ko‘rmaslikni yolvorib so‘radi...” (IV, 220), “g‘arib Jaabars esa musaffo tiniq osmonda miltillagan yulduzlar qurshagan xuddi mana shu ulkan to‘lin oyga qarab nido solib, o‘kirardi. Oyga o‘z dardu g‘amidan shikoyat qilar, ammo osmon malikasi javob bermasdi” (IV, 237). Arsen Samanchin fojiasida zamon, millat, jamiyat va tabiat fojiasi akslanadi. Xorijdan kelgan ovchilarga “Hayvonlarni qirishga yo‘l qo‘ymaymiz! ...Dubayga jo‘na, Quvaytga ket! Muqaddas tog‘larni oyoqosti qilma! Tuyoqlaringni shiqillat! Tez daf bo‘linglar!” (IV, 241) hayqirig‘i ostida adibning ona yurt tabiatini asrash g‘oyasi bong uryapti.

Taqdir chiziqlari samoviy tutashgan ikki qahramon Molotosh g‘orida qismatlari o‘xshashligini qalban his qiladilar. Yaralangan Arsen g‘orda haybati hech qayga sig‘magan ulkan tog‘ qoploni — so‘nib borayotgan Jaabarsni ko‘radi va savqitabiyy holda

dardkashlikni his qilib, “Sen ham shu yerdamisan?” (IV, 242) savolini beradi. Qismatlari o‘xshash bo‘lganlarning hayot bilan vidolashuv onlari ham bir xil kechadi: “Jaabarsdan tinmay qon oqardi. Inson ham xuddi shu ko‘yga tushdi. Taqdir taqozosi bilan inson va yirtqich hayotlarining oxirgi damida osmon ostidagi shu mag‘orada topishib qoldilar, yonma-yon yotib o‘lim sharbatini totdilar...” (IV, 242).

Adib noreal olam vakilini asarga xiyonat va hasad qurboni bo‘lganlarning achchiq qismatini ifodalash uchungina kiritmagan. Mangu qayliqning darbadar hayoti Arsen Samanchin va Jaabarsning qo‘nim topmagan ruhi — noreal olamiga ko‘chadi. Ular Uzangilash tog‘lari orasida qo‘nim istab, darbadar kezadilar. Ayrizamon va aynimakondagi qahramonlar mikroxronotopi har birida turli ko‘rinishlarda akslanadi.

A.Ulug‘ov adibning “Asrga tatigulik kun”, “Qiyomat”, “Oxirzamon nishonalari”, “Qulayotgan tog‘lar” romanlarida zamon va makon tasviri keng o‘rin tutishini ta’kidlab, ularda dasht va cho‘llar, tog‘ va daralar, aholi gavjum shahar, dasht qo‘ynidagi, tog‘lar orasidagi ovloq ovul va qishloqlar ko‘rinishi, odamlarning yashash joyi, hayot kechirish tarzi, kasb-kori, kundalik mashg‘ulotlari juda ishonarli chizib berilishi yozuvchining ayni asarlarida zamon va makon manzarasi san’atkorona tasvirlanganidan dalolat berishini e’tirof etadi (4, 397).

“Dashtu dalalarda” romanida Eshqul polvon va Bo‘zbo‘ri, To‘lanboy va Qoraquloq, “Qoraquyun” romanida Erman — Qoraquyun mikroxronotopi yondosh qo‘llangan. Ch.Aytmatov jonzotlari singari N. Norqobilovning jonzotlari faol emas, ular voqelik mehvarida turmaydi. Bo‘zbo‘rining xususiyatlari Eshqul polvon o‘yxayollarida, Qoraquloqning xatti-harakatlari To‘lanboyning zimdan kuzatuvi orqali ayonlashadi. Qoraquunning g‘ulda azoblanish tasvirlari Ermanning chohdagи hayotini, tutqunlikdagi azobini teran idrok qilish imkonini bergen.

Bo‘zbo‘ri va Eshqul polvon mikroxronotopi. Bo‘zbo‘ri va Qoramanglay Akbara va Toshchaynar singari juft bo‘lsa-da, adib bo‘rilar hayot tarziga urg‘u bermaydi. Faqat Oysuluv tilidan boshqa bo‘rilar singari ko‘p bolalamasligi, o‘ziday faqatgina ikkitagina yoki ba’zan bitta bola ko‘rishi aytildi. Shu bois ham Qoramanglay nomi Oysuluv tomonidan berilgan. Eshqul polvon va Bo‘zbo‘ri “orasidagi qo‘shnichilik hududiy emas, ruhiy bir yo‘singa qurilgan. Bu ruhiy sarhaddan na unisi hatlaydi, na bunisi. Bir-birlarini ko‘rib, ko‘rmaslikka, sezib, sezmaslikka olishadi. Shuningdek, ichki bir qonuniyatga bo‘ysunib, bir-birlarini tashqi tajovuzdan himoya ham qilishadi. Ya’niki, Eshqul polvonning podasi Bo‘zbo‘rining hududida o‘rlagani bois, podadagi mollarga o‘zi qotinmagandek, qo‘shni hudud bo‘rilarini ham yaqinlashtirmaydi. Eshqul polvon esa uni dashtda onda-sonda paydo bo‘ladigan ovchilardan himoyalaydi” (V, 34-35). Bo‘zbo‘ri Eshqul polvonning eng og og‘ir damlarida panohkor kabi yonida paydo bo‘ladi. Uni Farmonov va O‘sarqul battoldan himoyalaydi. Eshqul polvonning tushlarida Bo‘zbo‘ri goh qaynotasi O‘sarqul, goh dardkashi qiyofasida namoyon bo‘ladi. O‘ziga birodar bilgan Bo‘zbo‘rini battol qaynotasi qiyofasida kirganiga Eshqul

polvon hech ko‘nikolmaydi. Shu o‘rinda fe’li yovuz inson va yirtqich jonzot tabiatи qarama-qarshi qo‘yilib, Eshqul polvon nazdida bo‘ri ustun qo‘yiladi. Yozuvchi prospeksiyani ifodalashda ham bu obrazdan unumli foydalangan. Sihatgohda davolanayotgan Eshqul polvonning tushlarida yaqinlarining hayotida ro‘y bermish voqealar aynan Bo‘zbo‘ri va Qoramanglay orqali ogoh etiladi. Oygul farzandlari bilan dashtdan ketganda, Bo‘zbo‘ri Qoramanglay G‘ajirko‘zga ko‘z suzgani uchun tog‘u toshlardan haydab, o‘t qo‘ymoqchi bo‘lishi yoki Haydar bo‘ri bolalarini ovlab, halokatga yuz tutganda, Bo‘zbo‘ri uni o‘ziga kuyov qilib, to‘y kuni yemoqchi ekani tush xronotopi orqali ifodalangan. N. Norqobilovning bo‘rilari insoniylashadi, ya’ni Eshqul polvonning birodari tarzida gavdalanadi. Asarda yana ona bo‘ri bilan bog‘liq epizodik tasvir keltirilgan. Bolalari O‘sarqul battol tomonidan shafqatsizlarcha o‘ldirilgan ona bo‘rining achchiq alamlari, ayovsiz o‘ch olish epizodi “Qiyomat” romanida uch marotaba bolalaridan mosuvo bo‘lgan, Toshchaynaridan ayrilgan, oydagisi Ona bo‘riga dardlarini to‘kib solgan Akbaraning ruhiy holatlarini esga soladi. Ammo Akbara ruhiyatidagi qyinoq tush, ichki monolog, noverbal holatlar orqali ifodalansa, “Dashtu dalalarda”gi ona bo‘ri ruhiyati noverbal holatlar asosida gavdalantiriladi. “O‘sarqul battol tomonidan shafqatsizlarcha o‘ldirilgan bo‘ri bolalari shu holida tashlab ketilmagan, balki ona bo‘ri tomonidan obdon yalab-yulqalanib, so‘ng qator yotqizib qo‘yilgandi. Ona bo‘rining bolalaridan ko‘ngil uzib ketishi juda og‘ir kechganligi shundoqqina ko‘rinib turardi. Demak, u kamarni boshiga ko‘tarib rosa bo‘zlagan yoxud taqdiriga la’natlar o‘qib, jimgina ko‘zyoshi to‘kish bilan cheklangan. Xuddi odamlardek, jonivorlar ham musibatni turlicha qabul qilishadi, qaysi birlari dashtga sig‘may bo‘zlaydi, qaysi birlari esa, bamisoli toshdek sukutga botadi” (V, 182). Akbara Bozorboydan o‘ch ololmay, sarson-sargardon bo‘zlasa, ona bo‘ri o‘sha kechdayoq O‘sarqul battoldan bolalari va ota bo‘rining xunini olib, birgina omon qolgan bolasi bilan tog‘u toshlarni tark etadi.

“Asrni qaritgan kun” romanida Edigey Bo‘ronning fe’l-atvori Quronor orqali ochib berilgani singari Eshqul polvonning tiynati Bo‘zbo‘ri orqali yorqin gavdalanadi. Akbara va Toshchaynar mikroxronotopi asosida Bo‘ston va Gulimxon ruhiy olami teranlashadi. Ammo Bo‘zbo‘ri va Qoramanglay Eshqul polvon va Oysuluv mikroxronotopini u qadar ochishga xizmat qilmaydi.

To‘lanboy va Qoraquloq mikroxronotopi. Dashtda yolg‘izlik azobidan qiynalayotgan To‘lanboy ruhiy olamini yoritishda yozuvchi kattakon mallarang tulki — Qoraquloq obrazidan unumli foydalangan. Asar ekspozitsiyasida tund va hafsalasiz qiyofadagi To‘lanboy hamda qopqonga tushib, jontalvasasida o‘zini har yon urayotgan tulki tasviri keltiriladi. “Jonivorga rahm qilib emas, unga tez o‘limni ravon ko‘rmaganligi tufayli chekindi. U tulkinin erkalab va ermaklab o‘ldirishni istardi” (V, 9) jumlesi orqali To‘lanboyni ezayotgan alam moddiyatga ko‘chib, shafqatsiz tus olayotgan edi. Kitobxon qahramonning shafqatsizlik girdobida guvranayotganining sababini anglamaydi, yozuvchi bir muddat sir saqlash usulidan foydalananadi. To‘lanboy “ayniqsa, u alamzada kezлari hech bir yovvoyi

jonne ayab o‘tirmaydi. Ermakka ham o‘ldirib ketaveradi. Baxtga qarshi, shu kunlarda u juda alamzada edi” (V, 17). Alazmadalik sababi tufayli dashtga, uning jonivorlariga, otasi Eshqul polvon ta’biri bilan aytganda, o‘gaylik qilmoqda edi. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, chigal muammolar girdobida qolgan qahramon yuragini azoblayotgan g‘ashlikni yengillatish maqsadida tabiatni, tirik jonne ermakka aylantirdi. Ayovsizlik shu darajadaki, jonzotni mahv etish To‘lanboyga oxiri ko‘rinmaydigan dashtdagagi yolg‘izlik alamini sal yengillatadiganday tuyuladi. Hatto shilib olingen teri “o‘tov qoshidagi ayri yog‘ochlardan birida qurib-qaqshab yotsin, dashtning tentak shamoli uning mayin tuklarini yulib-yulqilab, chor-tarafga sochsin. Qurib, bujmayib, keraksiz bir matohga aylangan teriga o‘choq boshidagi kosovga yoxud biror-bir ro‘zg‘or buyumiga ko‘nikkanday, ko‘zlar o‘rgansin va so‘ng bora-bora uning mavjudligini butunlay esidan chiqarsin, ...bir qarashda neligini anglash qiyin bo‘lgan, tirishgan, burishgan allambalo teri parchasi” holiga kelishi To‘lanboining parvoyiga ham kelmaydi. Tulkining olis-olislarga tikilgan ko‘zlaridagi shudring yanglig‘ yoshni targ‘il novvos sezsa-da, ammo To‘lanboy buni kech payqaydi. “Shudring kabi yiltillab turgan ko‘z yoshlari yirik tomchiga aylanib, chekkalari bo‘ylab quyiga siljiy-siljiy” (V, 96), jufti Jaynoqko‘zini, bolalarini o‘ylardi. O‘zining ham yuragi ezilib-sitilib turgani uchun bu hol To‘lanboyga favqulodda qattiq ta’sir qiladi, qalbidan sizib chiqqan alamlari ko‘zyoshga aylanib, Qoraquloqning ko‘zlaridan sizib chiqayotgandek edi. Inson va jonzot sarhadsiz dashtda hamdardga aylanishadi, Qoraquloq qopqonga tushib, tutqunlik azobini cheksa, To‘lanboyga or-nomus vajidan keng dasht torlik qilib, iztirob chekardi.

Voqealar rivoji mobaynida Qoraquloqni qopqondan ozod etsada, bolalarini kuldirish uchun boshqa bir tulkinning terisini shilayotganda, otasi uni ayovsiz ravishda kaltaklab, dashtdan haydaydi. Eshqul polvon va To‘lanboy ma’naviy olamida kontrast holat yuzaga keladi, ularning dashtga munosabati ayricha. Otasi To‘lanboining dashtga o‘gayligini bot-bot takrorlaydi: “Ulim, ming qilsayam, sening dashtga o‘gayliging bor! Bor hadigim shundan!” (V, 218) yoki o‘zi ham “ko‘ngli dilgir paytlarida o‘zini dashtda o‘gaydek his etardi” (V, 93). Yozuvchi To‘lanboydagi shafqatsizlikni voqealar rivoji mobaynida mantiqiy dalillaydi. Uning ona tomonidan bobosi O‘sarqul battol nihoyatda johil inson ekani, yovuzlik ham meros singari avloddan avlodga o‘tishi mumkinligi Oygulga uylanayotganida, Sulaymon chavandoz tomonidan ta’kidlanadi. Eshqul polvonga “yomon palakning pokiza urug‘i bilan chatishganligi, yaxshi urug‘da yomon palakning nuqsi saqlanib, keyin mevalariga ta’sir etishi mumkinligi”ni (V, 167) dard bilan aytadi.

Tabiat farzandi sifatida inson yashashni tabiatdan o‘rganishi haqidagi g‘oya aynan shu ikki qahramon mikroxronotopi orqali ayonlashadi. To‘lanboy ruhiyatidagi parokandalik real turmushiga ham ko‘chadi. “Agar bugun Puchuqtepadan eran-qaran enayotib, ko‘zi tasodifan ensiz so‘qmoq bo‘ylab borayotgan Qoraquloqqa tushib qolmaganida va uning tirishqoqligi favqulodda e’tiborini tortmaganida, u o‘zining lanj ruhiyati va xatti-harakatlariga bu tarzda

tanqidiy nuqtai nazar bilan qaramagan, tabiiy, o‘tovni yig‘ishtirish lozimligini hatto xayoliga ham keltirmagan bo‘lardi” (V, 207). U qopqon tufayli bir oyog‘i shikastlangan tulkinining bolalari uchun oziq izlab, ming azobda harakat qilishini ko‘rib, o‘ziga tanqidiy nazar tashlaydi. Ma‘lum ma’noda shu jonivordan o‘rnak olib, necha kundan buyon to‘zib yotgan o‘tovni tartibga keltiradi. O‘z-o‘zini taftish etishi orqali ayoliga nisbatan lovullagan shubha va gumon olovini o‘chiradi. Oilasi oldidagi mas’uliyatini teran anglay boshlaydi.

Erman va Qoraquyun mikroxronotopi. G‘uldag'i it va chohdagi inson ruhiyati parallelizmi o‘tkir psixologizm orqali yondosh ifodalangan. Aslida it — Ermanning Itolmasga nisbatan nafratining moddiyati. Qoraquyun tol og‘ochli g‘uldag'i bu jonivorning zoti va nomi it bo‘lsa-da, aslida arslon yanglig‘ qahrli bir maxluq, baloyi azim, deya ta‘riflanadi. Itning rangi qoraligi tufayli shu nomni beradi, unga Itolmasning xizmatkori Qoraqulni eslatsa-da, bu nomdan voz kechmadi. “Itolmasga qo‘shib, Qoraqulni ham itga yedirmoq” (VI, 53) kabi yovuz niyatni diliqa tugdi. Qoraquunning g‘ulda to‘lg‘onishlarini Erman his etar, biroq jonivorning botinida yuz berayotgan evrilishlarni anglab yetmoqqa ojiz edi. Adib mahorati shundaki, har ikkisining ruhiyatidagi tutqunlik azobi o‘ziga xos yo‘sinda ifoda etilgan. Erman oltin qazish uchun Itolmas tomonidan bandi qilingan bo‘lsa, Qoraquyun Itolmasni mahv etish niyatida tutqunlik balosiga giriftor etilgan. Ermanning bandilik davridayoq bosh ko‘targan yovuz niyatini Oqbo‘ta o‘zi bilmagan holda yuzaga chiqishiga sabab bo‘ladi. Akasi Qalaybekdan olingan, yemishi bo‘ri go‘shti bo‘lgan Qoraquyun o‘ch olish quroliga aylantiriladi. G‘ulda it boqish sirlarini Qoraquldan o‘rgangan Erman hammasiga rioya qiladiyu, ammo itga nisbatan o‘zi ham shafqatsizlik qiladi. Asar voqealarini hayotiy mantiq asosida qurilgan. Zolim mazlum zanjirida Itolmasdan o‘ch olgan Erman o‘zi tarbiyalagan Qoraquyun tomonidan mahv etiladi. Hayot haqiqatiga sodiq adib bu holatni ishonarli tasvirlagan. Romanda parallel rivojlangan, biri ikkinchisini to‘ldirgan inson va jonzot psixologik xronotopi voqealar rivoji mobaynida uyg‘unlashib ketadi, chunki har ikki holatda ham nafrat yashirin. Avvalida Erman chohda tutqunlikning azobini totsa, shu ko‘rgulikni Qoraquyun boshiga soladi. Erman Itolmas uchun maqsad bo‘lsa, Qoraquyun Ermanning quroli edi. Ruhiyat parallelizmi orqali yozuvchi qanday badiiy-g‘oyaviy maqsadni ifodalamoqchi? Tutqunlik — ichki muvozanatni izdan chiqarishi, yovuzlashtirishi ayni haqiqat. Adib shuni nazarda tutadi. Psixologik xronotop mushtarakligi shundaki, inson ham, hayvon ham tutqunlik azobidan to‘lg‘onadi, qalbida vulqonday nafrat olovi qaynaydi, otilib chiqish pallasini orziqib kutadi: “Qoraquunning ayrim xatti-harakati va o‘zini tutishlarida Erman o‘zining tutqunlik davridagi ba‘zi holatlarni yaqqol ko‘ra boshlagandi. Jonivor goho g‘ulda o‘ta bejo to‘lg‘onganidek, ayrim oqshomlari Erman ham chohga sig‘may qolardi” (VI, 65). Erman va Qoraquyun mikroxronotopining teranlashishida nafrat, o‘ch, adovat motivlari ustuvorlik kasb etadi. Ular faqat tutqunlikdan ozor chekmaydi, balki inson va jonzot qalbi adovat iskanjasida azoblanadi. Keyingi paytlarda Qoraquunning ayrim harakatlarida, ya’ni uning

g‘ul tubida o‘likdek cho‘zilib, g‘amnok yotishlarida o‘zining chohdagи holatini ko‘rganday bo‘lsa-da, undan mehrini ayaydi. Unga tirik jon emas, vaqtি kelgan-da, kamondan otilishi kerak bo‘lgan o‘q sifatida qaraydi. Erman hatto xayollarida Qoraquyun Itolmasni qanday mahv etishini tasavvur qiladi va bundan taskin topadi: “g‘uldan chiqarilishi bilan naq baloning o‘qiga aylangan Qoraquyun uchqur va baquvvat otlarda archazor oralab kelayotgan suvoriylar tomon sassiz va sadosiz yelib bormoqda. U shu ketishida to‘da boshida kelayotgan keng yag‘rinli, burgut qarashli, qora soqoli juda kalta kuzalgan kimsa — Itolmasni ko‘z ostiga olgandi. Biroq suvoriylar hushyor tortguncha bo‘lmay, archalar orasidan yashin tezligida otilib chiqqan Qoraquyun Itolmasning naq bo‘g‘ziga yopishadi” (VI, 5-6). Mana shunday tizginsiz xayollar iskanjasida Erman Itolmasdan qasos olish kunini intiq bo‘lib kutadi, ammo bu kun o‘z hayoti uchun ham so‘ngisi bo‘lishini qalban his qilsa-da, joni qasos o‘tida qovriladi. Yovuz niyat o‘z egasini ham barbod qilishi mazkur romanning leytmotivi hisoblanadi. Qalaybek, Oqbo‘ta, otasi va do‘sti Omon uni bu fikrdan qaytarishga qanchalar harakat qilishmasin, Erman o‘z niyatida sobit turadi. Bu sobitlik unga ajalni yetaklab keladi. Bu Qoraquyun timsolidagi ajal edi. Aslida Erman qalbidagi cheksiz nafrat Qoraquyun aksida moddiyashgan bo‘lib, o‘z egasini mahv etadi. Inson va jonzot qalbidagi nafrat, alam, qasos o‘ti mikroxronotop paralleligida mahorat bilan tasvirlangan.

Xulosa. Xullas, ijtimoiy muammolar, qarama-qarshi kuchlarning ziddiyati, har qanday zamon va makonlarda qabohatni quritmoqchi bo‘lganlarning ayanchli taqdiri makroxronotop, xarakterlar ruhiyatining barcha qirralarini aniqlash, kechinmalar orqali hayotning turli muammolarini aks ettirish, personajlar ruhiy olamini o‘tmish bilan bog‘lash kabi adabiy-estetik vazifani mikroxronotop bajaradi.

Parabola-romanlarda yozuvchining ijodiy niyatiga muvofiq asosiy syujet chizig‘iga yondosh holda asarda badiiy modeli yaratilgan davrning ijtimoiy, ma’naviy holatini ifodalash maqsadida murakkab folklorizmlardan foydalaniladi. Romanda doston, ertak, afsona, rivoyat va miflarning badiiy-estetik imkoniyatini jalb etish orqali syujet, obraz hamda motiv stilizatsiyasi yuzaga keladi. Yozuvchi ayrizamon va ayrimakonda ro‘y bergen voqealar asosida parabola-romanning poetik imkoniyatlarini kengaytirish va yangi estetik qirralarini ochishga muvaffaq bo‘ladi.

Adiblarning badiiy mahorati shundaki, obraz xarakter-xususiyatini badiiy dalillashda hozir va o‘tmish parallel qo‘yiladi. Zamonaviy obrazlarning o‘tmish qahramonlari bilan qiyoslanishi, mushtarak jihatlarning tutashtirilishi davr va inson hayotining badiiy manzaralarini yorqinroq idrok etish imkonini beradi. Romanlar zamon va makon chegaralari diniy va tarixiy rivoyatlar, afsona va miflar orqali kengaytiriladi. Parabola-roman syujet chiziqlari yondosh xronotopni hosil qilgani bois syujet unsurlarida ham alohidalik seziladi. Bu asarlarning yaxlit kompozitsiyasiga putur yetkazmaydi. Yondosh xronotoplар amebey kompozitsiyasi asosida yaxlitlik kasb etadi.

Ruhiy tasvirning eslash usuli xarakterlarning mazmun-mohiyati, qalb dramatizmi, ruhiy kechinmalarning haqqoniy ochilishi hamda xronotop sarhadlarining kengayishiga zamin yaratgan. Inson va jonzot ruhiyatining iztirobi, dardu alami tush, ayrılıq, zulm motivi orqali berilgan. Mualliflar inson va jonzot mikroxronotoplarni parallel qo'llash usulidan xarakterlar ruhiyatini ochishda mohirona foydalangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Жолдошлиева Ж.Э. Природа и человек в романе Чингиза Айтматова «Плаха»// Чингиз Айтматов. Личность. Эпоха: Сборник материалов международной научно-практической конференции. — Москва, 10–11 декабря 2018. — С. 65–72.
2. Ибраимов К. Когда падают горы (Вечная невеста). — URL: <https://respublica.kg/2018/12/06/kogda-padayut-gory-vechnaya-nevesta/>
3. Саломов Г. Мен сув ичган дарёлар. Мулоқот. Мушоҳада чечаклари. Шингил воқеалар. Одамлар ва тақдирлар. — Т.: “Ёш гвардия” нашриёти, 1990. — 272 б.
4. Ulug'ov A. Jahon adabiyoti (Turkiy xalqlar adabiyoti). Darslik. — Т.: Muharrir nashriyoti, 2021. — 424 б.
5. Файзуллаев Х. Нормурод Норқобилов насида инсон ва табиат муаммосининг поэтик талқини: Филол.фан. фалс. д-ри ...дисс.автореф. — Карши, 2021. — 48 б.

Foydalanilgan badiiy adabiyotlar

- I. Айтматов Ч. Асрни қаритган кун: (Чингизхоннинг оқ булути, Тангрига тавалло): роман. /Рус тилидан Асил Рашидов ва Иброҳим Faфуров таржимаси. — Т.: Sharq, 2019. — 560 б.
- II. Айтматов Ч. Қиёмат: роман. /Рус тилидан Иброҳим Faфуров таржимаси. — Т.: Янги аср авлоди, 2015. — 432 б.
- III. Айтматов Ч. Кассандра тамғаси: Фалсафий роман. /Русчадан Суюн Қораев таржимаси. — Т.: Янги аср авлоди, 2016. — 352 б.
- IV. Айтматов Ч. Қулаётган тоғлар: роман. /Рус тилидан Иброҳим Faфуров таржимаси. — Т.: Янги аср авлоди, 2016. — 432 б.
- V. Норқобилов Н. Дашту далаларда: роман. — Т.: Ўзбекистон, 2009. — 224 б.
- VI. Норқобилов Н. Коракуюн: роман. — Т.: Ўзбекистон, 2016. — 222 б.

References

1. Joldoshalieva J.E. *Chingiz Aytmatov. Lichnost. Epoxa* (Chingiz Aitmatov. Personality. Epoch), Proceedings of the Collection of materials of the international scientific and practical conference, Moscow, December, 10–11, 2018, pp. 65-72.
2. Ibraimov K. *Kogda padayut gori (Vechnaya nevesta)* (When Mountains Fall (Eternal Bride)), available at: <https://respublica.kg/2018/12/06/kogda-padayut-gory-vechnaya-nevesta/>

3. Salomov G. *Men suv ichgan daryolar. Muloqot. Mushohada chechaklari. Shingil voqealar. Odamlar va taqdirlar* (Rivers I drank water from. Communication. Observed smallpox. Shingle events. People and destinies), Tashkent: Yosh gvardiya nashriyoti, 1990, 272 p.
4. Ulugov A. *Jahon adabiyoti (Turkiy xalqlar adabiyoti)* (World literature (Literature of Turkic peoples)), Tashkent: Muhamarrir nashriyoti, 2021, 363 p.
5. Fayzullaev Kh. *Normurod Norqobilov nasrida inson va tabiat muammosining poetik talqini* (Poetic interpretation of the problem of man and nature in Normurod Norqabilov's prose), extended abstract of PhD thesis, Karshi, 2021, 48 p.

Used art literature

- I. Aytmatov Ch. *Asrni qaritgan kun* (The Day Lasts More Than a Hundred Years), Tashkent: Sharq, 2019, 560 p.
- II. Aytmatov Ch. *Qiyomat* (The Place of the Skull), Tashkent: Yangi asr avlod, 2015, 432 p.
- III. Aytmatov Ch. *Kassandra tamg'asi* (Cassandra's Brand), Tashkent: Yangi asr avlod, 2016, 352 p.
- IV. Aytmatov Ch. *Qulayotgan tog'lar* (Falling mountains), Tashkent: Yangi asr avlod, 2016, 432 p.
- V. Norqobilov N. *Dashtu dalalarda* (In the steppe fields), Tashkent: Uzbekistan, 2009, 224 p.
- VI. Norqobilov N. *Qoraquyun* (Black Whirlwind), Tashkent: Uzbekistan, 2016, 222 p.